<b>Maxmonov Uktam Ashurovich</b>	
TA'LIM XIZMATLARI BOZORINING RIVOJLANISHI VA RAQOBATBARDOSHLIGINI PROGNOZLASH METODLARI .....	845
<b>Bozorova Madina Raxmat qizi</b>	



HUDUDIY TURIZM XIZMATLARI BOZORIDA MEHMON UYLARINING ULUSHINI OSHIRISHNING IQTISODIYOTGA TA'SIRI.....	850
<b>Dilbar Xasanovna Aslanova, Jasur Farxodovich Fattayev</b>	
АНАЛИЗ РАЗРАБОТКИ ЖЕНСКИХ КОЛЛЕКЦИЙ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ СТИЛИСТИЧЕСКИХ И КОНСТРУКТИВНЫХ ОСОБЕННОСТЕЙ ПЕТРО-МОДЫ.....	854
<b>Абдурахманова Н., Рахматуллаева У. С.</b>	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI FAOLIYATINI OSHIRISHNING ASOSIY MOLIVAVIY YO'NALISHLARINI BOSHQARISH MASALALARI.....	859
<b>Daniyarov Quwatbay Dáwirxanovich, Turdimuratova Gulsanem Asqar qizi</b>	
BUXORO SHAHRIDAGI PREZIDENT MAKTABINING MOLIVAVIY-IQTISODIY FAOLIYATI VA BOSHQARUV TIZIMINI TAHLIL ETISH.....	866
<b>Davidxodjayev Oybek Obidovich</b>	
ORGANIZATIONAL AND ECONOMIC MECHANISM FOR ENSURING FOOD SECURITY AND ITS STRUCTURAL COMPOSITION.....	871
<b>Mattiyev Sodiqjon Qodirovich</b>	
ISSIQ-QURUQ IQLIM HUDUDLARIDA BINOLARNING ENERGIYA SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA DINAMIK QUYOSHDAN HIMOYALOVCHI TIZIMLARNING ARHITEKTURAVIY-INJENERLIK YECHIMLARI.....	876
<b>Ahmadov Tolibjon Akmalovich</b>	
Iqtisodiy tizimda risk va uning xususiyatlari tahlili.....	879
<b>Nasimov Ravshanjon Azimovich</b>	
YASHIRIN IQTISODIYOT VA UNI RAQAMLI NAZORAT SHAROITIDA QISQARTIRISH USULLARI.....	887
<b>Nargiza Muzafarovna Babaeva</b>	
YURAK-QON TOMIR KASALLIKLARINI BASHORAT QILISHDA MASHINALI O'QITISH ALGORITMLARINING QIYOSIY TAHLILI.....	894
<b>Saytov Kamiljan Begdullaevich, Bekniyazova Nurjamal Danaevna, Xudaynazarova Malika Orinbaevna</b>	
TIJORAT BANKLARI KREDITLARI ASOSIDA YOG'-MOY SANOATI KORXONALARINI TRANSFORMATSIYA QILISH ISTIQBOLLARI.....	903
<b>Azlarova Dilnoza Axrorovna</b>	
YASHIL OBLIGATSIYALAR BOZORINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI.....	908
<b>Mamayusupova Shahina Ulug'bek qizi</b>	
QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARINING IQTISODIY SAMARADORLIGI: QUYOSH, SHAMOL VA GIDRO ENERGIYANI INVESTITSIYA VA DAROMAD TAHLILI.....	914
<b>Sohibov Azizbek, Karimova Komila</b>	
BUXORO TARIXIY MARKAZIDA TURISTIK SIG'IMNI ILMIY ASOSDA BOSHQARISH: KO'KALDOSH MADRASASI TAJRIBASI.....	919
<b>Ikromova Shaxinabonu, Qilichov Muhriddin</b>	
DAVLAT XARIDLARIDA TCO-UMUMIY EGALIK QIYMATI ASOSIDA BAHOLASHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI.....	926
<b>Turabov Sarvar Abdumalikovich</b>	
MAHALLIY BYUDJETLAR MOLIVAVIY BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA JISMONIY SHAXSLARNING MOL-MULK VA YER SOLIQLARINI TAKOMILLASHTIRISH: EKONOMETRIK YONDASHUV.....	930
<b>Babayev Shavkat Bayramovich</b>	
СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ И ГИБРИДНЫЕ ПОДХОДЫ К ПРОЕКТИРОВАНИЮ ВЫСОТНЫХ ГОСТИНИЦ И СПЕЦИАЛИЗИРОВАННЫХ ПУЛЬМОНОЛОГИЧЕСКИХ БОЛЬНИЦ.....	937
<b>Гаффорова Зиёда, Габибова Ирина</b>	
IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASHDA YASHIL IQTISODIYOTNING O'RNI VA AHAMIYATI.....	952
<b>Tursinov A.J., N. Bazarbaev, Z. Dauletova, N. Mirzaxanova</b>	
MARKAZIY OSIYODA HUDUDIY INTEGRATSIYA JARAYONLARI RIVOJLANISHINING ZAMONAVIY HOLATI VA OMILLARI.....	956
<b>Akbarova Kamola Akmaljonovna</b>	



QISHLOQ JOYLARDA AHOLINI UY-JOY BILAN TA'MINLASHNING MOLIVAVIY MUAMMOLARI VA YECHIMLARI .....	962
<b>Xannarov Komiljon Karimovich</b>	
SOG'LIQNI SAQLASHDA BOSHQARUV NAZARIYASINING RIVOJLANISH BOSQICHLARI VA TRANSFORMATSIYASI .....	967
<b>Saidov Suhrob Shodmonovich</b>	
ОРГАНИЗАЦИОННО-УПРАВЛЕНЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ РАЗВИТИЯ ТУРИЗМА В УСЛОВИЯХ ТРАНСГРАНИЧНОСТИ НА ПРИМЕРЕ РЕСПУБЛИКИ КАРАКАЛПАКСТАН .....	972
<b>Наурызбаев Алиакбар Рустамович</b>	
NODAVLAT OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA MOLIVAVIY BARQARORLIK VA LIKVIDLIKNI BOSHQARUV HISOBIGA INTEGRATSIYALASH: KO'RSATKICHLAR TIZIMI, PROGNOZLASH VA ERTA OGOHLANTIRISH MEKANIZMI .....	976
<b>Xojiboyev Muxiddin Shodimuxamedovich</b>	



# NODAVLAT OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA MOLIYAVIY BARQARORLIK VA LIKVIDLIKNI BOSHQARUV HISOBIGA INTEGRATSIYALASH: KO'RSATKICHLAR TIZIMI, PROGNOZLASH VA ERTA OGOHLANTIRISH MEXANIZMI

**Xojiboyev Muxiddin Shodimuxamedovich**

Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti,  
"Buxgalteriya hisobi va audit" kafedrası dotsenti, i.f.n.,  
e-mail: [xojiboyevmuhiddin77@gmail.com](mailto:xojiboyevmuhiddin77@gmail.com)

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada nodavlat oliy ta'lim muassasalarida (NOTM) moliyaviy barqarorlik va likvidlikni boshqaruv hisobi tizimiga integratsiyalashning nazariy-metodologik asoslari, ko'p bosqichli ko'rsatkichlar tizimi, ssenariyli prognozlash modeli va erta oghlantirish mexanizmi ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Tadqiqotda moliyaviy barqarorlikni baholashning oltita asosiy koeffitsiyentidan iborat tizim, uch darajali ko'rsatkichlar piramidasini shakllantirish, **rolling forecast** yondashuvi hamda "yashil-sariq-qizil" zonalarga asoslangan proaktiv monitoring mexanizmi taklif etilgan.

**Kalit so'zlar:** moliyaviy barqarorlik, likvidlik koeffitsiyenti, boshqaruv hisobi, nodavlat OTM, **rolling forecast**, ssenariyli prognozlash, erta oghlantirish tizimi, ko'rsatkichlar piramidası.

**Аннотация.** В данной статье научно обоснованы теоретико-методологические основы интеграции финансовой устойчивости и ликвидности в систему управленческого учета негосударственных высших образовательных учреждений (НГОУ), многоуровневая система показателей, модель сценарного прогнозирования и механизм раннего предупреждения. В исследовании предложены система оценки финансовой устойчивости, состоящая из шести основных коэффициентов, формирование трехуровневой пирамиды показателей, подход **rolling forecast**, а также механизм проактивного мониторинга, основанный на принципе «зеленой — желтой — красной» зон.

**Ключевые слова:** финансовая устойчивость, коэффициент ликвидности, управленческий учет, негосударственные вузы, **rolling forecast**, сценарное прогнозирование, система раннего предупреждения, пирамида показателей.

**Abstract.** This article scientifically substantiates the theoretical and methodological foundations of integrating financial stability and liquidity assessment into the management accounting system of non-state higher educational institutions (NHEIs), and proposes a multi-level indicator system, a scenario-based forecasting model, and an early warning mechanism. The study offers a system of six key financial stability coefficients, a three-tier indicator pyramid structure, a rolling forecast approach, and a proactive monitoring mechanism based on traffic-light zones.

**Keywords:** financial stability, liquidity coefficient, management accounting, non-state HEI, rolling forecast, scenario planning, early warning system, indicator pyramid.

## KIRISH

Zamonaviy nodavlat oliy ta'lim muassasalarining faoliyati doimiy o'zgaruvchan tashqi muhit, kuchayib borayotgan raqobat, talabalar va ish beruvchilarning talablariga moslashish zarurati hamda moliyaviy barqarorlikni saqlashning murakkabligi bilan tavsiflanadi. Bunday sharoitda boshqaruv hisobi tizimi oddiy hisob-kitob va hisobot vositasidan tashqariga chiqib, muassasaning barqaror rivojlanishi va raqobatbardoshligini ta'minlovchi strategik mexanizmga aylanishi lozim.

Nodavlat oliy ta'lim muassasalari davlat moliyalashtirishi bilan to'liq ta'minlanmaydi — ularning faoliyati asosan kontrakt tushumlari, grantlar va boshqa xizmatlardan shakllanadigan daromadlar hisobiga yuritiladi. Shu sababli bunday muassasalarning iqtisodiy barqarorligi daromad manbalarining diversifikatsiyasi, xarajatlar sig'imi, qisqa muddatli majburiyatlarni qoplash qobiliyati va ichki moliyaviy boshqaruv sifatiga bevosita bog'liqdir.

O'zbekiston iqtisodchi olimlari N.B. Abdusalomova [1], M.Sh. Mamatkulov [2], B.Y. Maxsudov [3], U.U. Kostayev [4], I.K. G'iyosov [5], I.B. Jumaniyozov [6], M.B. Kalonov [7] va Sh.A. Pardayeva [8] kabi tadqiqotchilarning so'nggi besh yildagi ishlari boshqaruv hisobi, budjetlashtirish va moliyaviy rejalashtirish masalalarini keng qamrab olgan.



Biroq nodavlat OTMLar uchun maxsus mo'ljallangan moliyaviy barqarorlik va likvidlik diagnostikasi, ssenariyli prognozlash hamda erta ogohlantirish tizimini boshqaruv hisobiga integratsiyalash modeli adabiyotlarda yetarlicha ishlab chiqilmagan. Mazkur maqola ushbu ilmiy bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan.

Maqolaning asosiy maqsadi — nodavlat oliy ta'lim muassasalarida moliyaviy barqarorlik va likvidlikni baholashning takomillashtirilgan ko'rsatkichlar tizimini, tushumlarni prognozlash modelini, ko'rsatkichlar piramidasi va erta ogohlantirish mexanizmini ilmiy asoslashdan iborat.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

So'nggi yillardagi O'zbekiston ilmiy adabiyotlarini tahlil qilish boshqaruv hisobi va moliyaviy boshqaruv metodologiyasini takomillashtirish bo'yicha kuchli ilmiy maktab shakllanganini ko'rsatadi.

N.B. Abdusalomovning [1] ilmiy ishida boshqaruv hisobi tizimida ichki nazorat va budjetlashtirish jarayonlarini rivojlantirish boshqaruv qarorlarining sifatini oshirish, iqtisodiy risklarni kamaytirish hamda resurslardan samarali foydalanishni ta'minlash uchun zarur ekanligi asoslab berilgan. Ushbu yondashuv nodavlat OTMLarda moliyaviy intizom va ichki nazorat tizimini shakllantirish uchun metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Bundan tashqari, olimaning tadqiqotida boshqaruv hisobi tizimida axborotning ishonchliligi va boshqaruv qarorlarini asoslashdagi roli alohida ta'kidlangan.

M.Sh. Mamatkulovning [2] dissertatsiya tadqiqotida xizmat ko'rsatish sohasida boshqaruv hisobini strategik boshqaruv bilan integratsiyalash, daromadlar va xarajatlarni segmentlar kesimida baholash, mas'uliyat markazlari bo'yicha hisob yuritish mexanizmlari ishlab chiqilgan. Tadqiqotning xizmat ko'rsatish sohasiga qaratilganligi uning metodologik yondashuvlarini nodavlat OTMLarga bevosita tatbiq etish uchun alohida qimmatga ega qiladi. Xususan, daromad va xarajatlar oqimlarini operativ va taktik darajalarda nazorat qilish mexanizmi ushbu maqola uchun muhim metodik tayanch bo'lib xizmat qiladi.

B.Y. Maxsudovning [3] ilmiy ishida boshqaruv hisobida budjetlashtirishni smeta shaklidan natijaga yo'naltirilgan modelga o'tkazish zarurligi, budjet ko'rsatkichlari va strategik maqsadlar o'rtasida uzviy aloqa o'rnatish lozimligi asoslab berilgan. Tadqiqotda budjet rejasining ijrosi ustidan nazorat qilish va og'ishlarni tahlil qilish metodologiyasi ishlab chiqilgan bo'lib, bu nodavlat OTMLarda **rolling forecast** va ssenariyli prognozlashni joriy etishning nazariy asosini tashkil etadi.

U.U. Kostayevning [4] strategik boshqaruv hisobi metodologiyasiga bag'ishlangan ilmiy ishida **Balanced Scorecard** (BSC), asosiy samaradorlik ko'rsatkichlari (KPI) va segmentli hisob yondashuvlarini O'zbekiston korxonalarini uchun moslashtirishning metodik asoslari ishlab chiqilgan. Ko'rsatkichlarni strategik maqsadlar bilan bog'lash va ularni darajalarga bo'lish tamoyili mazkur maqolada taklif etilayotgan ko'rsatkichlar piramidasi shakllantirishning metodologik negizini tashkil etadi.

I.K. G'iyosovning [5] tadqiqotlarida boshqaruv hisobini tashkil etish va samaradorligini oshirish yo'nalishlari, xususan, xarajatlar markazlari bo'yicha hisob yuritish, faoliyatga asoslangan xarajatlar hisobi (ABC) va boshqaruv hisobini axborot tizimlari bilan integratsiyalash masalalari o'rganilgan. Ushbu yondashuv nodavlat OTMLarda taktik darajadagi moliyaviy ko'rsatkichlarni to'g'ri tashkil etish uchun muhim metodologik asos yaratadi.

I.B. Jumaniyazov [6] korxonalarda xarajatlar va daromadlarning boshqaruv hisobi hamda tahlilini takomillashtirish yo'nalishlarini o'rganib, xarajatlar segmentatsiyasi, marjinal daromad tahlili va og'ishlarni aniqlash metodologiyasini ishlab chiqqan. Tadqiqotning amaliy yo'naltirilganligi va og'ishlar tahlilining metodik asoslanishi mazkur maqolada taklif etilayotgan prognozlash-monitoring modelining muhim qismi uchun ilmiy tayanch bo'lib xizmat qiladi.

M.B. Kalonov [7] korxonalarda daromadlar va xarajatlar hisobi hamda tahlili metodologiyasini takomillashtirish masalalarini tadqiq etib, moliyaviy natijalarni segment va markazlar kesimida baholash metodlarini ishlab chiqqan. Sh.A. Pardayeva [8] esa xo'jalik subyektlarida moliyaviy natijalarning strategik boshqaruv hisobini takomillashtirish masalalarini o'rganib, moliyaviy ko'rsatkichlarni strategik qarorlar bilan bog'lashning ilmiy asoslarini yoritgan. Bu ikki tadqiqot birgalikda nodavlat OTMLarda daromad-xarajat muvozanatini ta'minlash va rentabellikni baholashda metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

A.X. Pardayev va B.X. Pardayev [9] hamda A.K. Ibragimov, B.A. Xasanov, N.K. Rizayev [10] tomonidan yaratilgan darslik va qo'llanmalar O'zbekiston boshqaruv hisobi ilmiy maktabining fundamental tayanch manbalari bo'lib, ularning metodologik yondashuvlari zamonaviy tadqiqotlarda ham keng qo'llanilmoqda.

Adabiyotlar sharhini umumlashtirganda quyidagi xulosa chiqarish mumkin: O'zbekiston ilmiy maktabida boshqaruv hisobining strategik, segmentli va integratsiyalashgan modellari bo'yicha kuchli metodologik poydevor yaratilgan. Biroq aynan nodavlat OTMLar uchun moliyaviy barqarorlik koeffitsiyentlari tizimi, erta ogohlantirish zonalari va ssenariyli prognozlashni yagona boshqaruv hisobi modeli doirasida birlashtirish masalasi hali to'liq ishlab chiqilmagan. Mazkur maqola ana shu bo'shliqni to'ldiradi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda quyidagi ilmiy metodlardan foydalanilgan: tizimli tahlil, koeffitsiyentli moliyaviy tahlil, iqtisodiy-analitik modellashtirish, qiyosiy tahlil, ssenariyli prognozlash, ko'p mezonli baholash hamda jadvaliy-grafik tahlil. Amaliy ma'lumotlar bazasi sifatida "KIUT" (Kimyo xalqaro universiteti Toshkent) nodavlat oliy ta'lim muassasasining 2024–2025-yillardagi moliyaviy hisobot ma'lumotlari qo'llanilgan: joriy aktivlar — 54,8 mlrd so'm, joriy majburiyatlar — 24,3 mlrd so'm, o'z mablag'lari — 77,4 mlrd so'm, jami aktivlar — 263,3 mlrd so'm, sof tushum — 20 mlrd so'm, jami xarajatlar — 17 mlrd so'm.

Moliyaviy barqarorlikni baholash tizimi besh blok ko'rsatkich asosida qurildi: 1) joriy va tezkor likvidlik; 2) moliyaviy mustaqillik va kapitalizatsiya; 3) qisqa muddatli majburiyatlarni qoplash; 4) xarajat qaytimi va rentabellik; 5) tushumlarning barqarorligi va pul oqimlari ritmi. Ko'rsatkichlarning tavsiya etilgan mezon qiymatlari ilmiy adabiyotlar [1; 4; 7] va amaliy tajriba asosida belgilandi.

Ssenariyli prognozlash modelida uchta asosiy drayverga asoslanildi: talabalar soni (N), o'rtacha kontrakt summasi (K) va to'lov intizomi koeffitsiyenti ( $\alpha$ ). Prognozlash formulalari quyidagicha:

$$PT = N \times K \times \alpha \quad (1)$$

$$PXo = N \times Xo_{\text{normativ}} \quad (2)$$

$$PDX = DX_{\text{bazaviy}} \pm \Delta Rej \quad (3)$$

Bu yerda: **PT** — prognoz tushum; **PXo** — prognoz o'zgaruvchan xarajatlar; **PDX** — prognoz doimiy xarajatlar; **Xo\_normativ** — bir talaba uchun o'zgaruvchan xarajat normativi; **DX\_bazaviy** — bazaviy doimiy xarajatlar;  **$\Delta Rej$**  — rejalashtirilgan o'zgarishlar. Uch ssenariy bo'yicha — bazaviy, optimistik va pessimistik — hisob-kitoblar amalga oshirildi.

Ko'rsatkichlar piramidasida uch daraja belgilandi: operativ — kundalik va oylik monitoring, taktik — choraklik tahlil va strategik — yillik indekslar. Erta ogohlantirish tizimida "yashil" — me'yor, "sariq" — ehtiyot zona va "qizil" — kritik zona chegaralari har bir koeffitsiyent uchun alohida belgilandi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

### Moliyaviy barqarorlikni baholashning takomillashtirilgan ko'rsatkichlar tizimi

Nodavlat OTMlar uchun moliyaviy barqarorlik va likvidlikni baholashda faqat bitta koeffitsiyentga tayanish yetarli emas. Tadqiqot natijasida oltita asosiy ko'rsatkichdan iborat kompleks tizim taklif etildi. 1-jadvalda ushbu ko'rsatkichlar, ularning formulalari, tavsiya etiladigan mezon qiymatlari, "KIUT" OTM bo'yicha namunaviy natijalar va tahliliy xulosalar keltirilgan.

1-jadval.

### Nodavlat oliy ta'lim muassasalarida moliyaviy barqarorlik va likvidlikni baholashning takomillashtirilgan ko'rsatkichlari

Ko'rsatkich	Hisoblash formulasi	Tavsiya etiladigan mezon	Namunaviy natija («KIUT» OTM)	Tahliliy xulosa
Joriy likvidlik koeffitsiyenti	Joriy aktivlar / Joriy majburiyatlar	> 1,0 – 2,0	<b>2,26</b>	Qisqa muddatli majburiyatlarni qoplash qobiliyati yaxshi
Kritik baholash koeffitsiyenti	(Pul mablag'lari + qisqa muddatli debitorlik) / Joriy majburiyatlar	> 0,7 – 0,8	Sharoitga ko'ra	Tezkor to'lov qobiliyatini aks ettiradi
Kapitalizatsiya koeffitsiyenti	Jalb qilingan mablag'lar / O'z mablag'lari	< 1,5	<b>0,31</b>	Qarz yuklamasi maqbul darajada
Moliyaviy barqarorlik koeffitsiyenti	(O'z mablag'lari + uzoq muddatli manbalar) / Jami aktivlar	> 0,6	<b>0,29 – 0,30</b>	Mustahkamlash zarur
O'z mablag'lari ulushi	O'z mablag'lari / Jami aktivlar	O'sib boruvchi trend	<b>29,4%</b>	Moliyaviy mustaqillik o'rtacha darajada
Xarajat qaytimi	Tushum / Jami xarajatlar	> 1	<b>1,18</b>	Faoliyat ijobiy qaytim bermoqda

"KIUT" OTM bo'yicha amalga oshirilgan amaliy hisob-kitob shuni ko'rsatdiki: joriy likvidlik koeffitsiyenti 2,26 ni tashkil etib, muassasaning qisqa muddatli majburiyatlarni qoplash qobiliyati qoniqarli darajada. Kapitalizatsiya



koefitsiyenti 0,31 bo'lib, qarz yuklamasi nazorat ostida. Biroq moliyaviy barqarorlik koefitsiyentining 0,29–0,30 atrofida bo'lishi uzoq muddatli strategik barqarorlikni mustahkamlash zarurligini anglatadi. O'z mablag'lari ulushining 29,4 foiz darajasida turishi, ayniqsa investitsiyalar hajmi ortgan davrda, moliyaviy mustaqillikni oshirish zaruratini ko'rsatadi. Xarajat qaytimi 1,18 bo'lib, faoliyat ijobiy qaytim berayotganini tasdiqlaydi.

N.B. Abdusalomova [1] va U.U. Kostayev [4] tadqiqotlarida ham moliyaviy ko'rsatkichlarni birgalikda baholash va ularni boshqaruv hisobiga integratsiyalash zarurligi ilmiy asoslab berilgan. Moliyaviy barqarorlikni faqat aktiv va majburiyatlar nisbati orqali emas, balki kelajakda daromad yaratish salohiyati bilan birga baholash lozim: agar ta'lim xizmatlari yuqori marjinal daromad yaratsa va xarajat qaytimi barqaror bo'lsa, qisqa muddatli likvidlikdagi vaqtinchalik tebranishlar strategik xavf darajasini pasaytirishi mumkin. Aksincha, rentabellik pasayib borayotgan bo'lsa, formal ravishda likvid ko'ringan balans ham uzoq muddatli barqarorlikni anglatmaydi.

### Ko'rsatkichlar piramidasini shakllantirish va erta ogohlantirish tizimi

Moliyaviy ko'rsatkichlarni boshqaruv hisobi tizimiga samarali integratsiyalash uchun uch darajali ko'rsatkichlar piramidasini shakllantirish tavsiya etiladi:

– Operativ daraja — kundalik va oylik tushumlar, to'lovlar intizomi, debitorlik va kreditorlik qarzdorligi, naqd pul qoldiqlari; haftalik yoki oylik likvidlik monitoringi, tushumlar va majburiyatlar kalendari.

– Taktik daraja — choraklik rentabellik, marjinal daromad, xizmatlar tannarxi, joriy likvidlik, xarajatlar tarkibi; bo'linmalar bo'yicha moliyaviy intizom, debitor va kreditor qarzdorlik dinamikasi.

– Strategik daraja — moliyaviy barqarorlik indeksi, o'z mablag'lari ulushi, investitsion qoplash salohiyati, daromad manbalari diversifikatsiyasi, uzoq muddatli rivojlanish ko'rsatkichlari va moliyaviy xavf muvozanati.

Ushbu piramida rahbariyatga turli boshqaruv darajalarida turli chuqurlikdagi axborotdan foydalanish imkonini beradi.

Erta ogohlantirish tizimida har bir ko'rsatkich uchun “yashil”, “sariq” va “qizil” zonalar belgilanadi. Masalan: joriy likvidlik 1,5 dan yuqori bo'lsa — yashil zona (barqaror holat); 1,2–1,5 oralig'ida — sariq zona (ehtiyot choralar zarur, kontrakt tushumlari monitoringi kuchaytiriladi); 1,2 dan past — qizil zona (zudlik bilan qarzlarni va to'lovlar qayta ko'rib chiqiladi). Kapitalizatsiya koefitsiyenti 1,0 dan past — yashil; 1,0–1,3 — sariq; 1,3 dan yuqori — qizil. Xarajat qaytimi 1,2 dan yuqori — yashil; 1,0–1,2 — sariq; 1,0 dan past — qizil (segmentlar bo'yicha marjinal tahlil chuqurlashtiriladi). Aynan shunday mexanizm boshqaruv hisobi tizimini reaktiv emas, proaktiv moliyaviy boshqaruv vositasiga aylantiradi.

Moliyaviy prognoz va boshqaruv hisobi ko'rsatkichlarini vizual analitik dashboard shaklida taqdim etish samaradorlikni yanada oshiradi. Bunday panel joriy va prognoz tushumlar, oylar bo'yicha to'lov yig'impliligi, tushumlarning segmentlar bo'yicha tarkibi, marjinal daromad dinamikasi, joriy likvidlik va pul oqimlari, kontrakt rejasining bajarilish foizi, xarajatlarning budjetga nisbatan og'ishi hamda yuqoridagi “yashil-sariq-qizil” holat ko'rsatkichlarini o'z ichiga oladi.

### Ssenariyli prognozlash va rolling forecast modeli: amaliy natijalar

An'anaviy smeta yondashuvi o'zgaruvchan tashqi muhitga moslashishda sust bo'lganligi sababli, nodavlat OTMlar uchun **rolling forecast** — davriy yangilanib boradigan prognoz tizimini joriy etish tavsiya etiladi. Har oy yoki har chorak yakunida kontrakt tushumlari, talabalar qabul dinamikasi, xarajatlar tarkibi va pul oqimlari prognozi qayta ko'rib chiqilib, yil yakuniga nisbatan kutilayotgan natijalar yangilanadi. Bu budjetlashtirishni statik rejadandan uzluksiz boshqaruv sikliga aylantiradi.

“KIUT” OTM uchun uch ssenariy bo'yicha prognozlash natijalari 2-jadvalda keltirilgan. Bazaviy ssenariyda talabalar soni 2 000 nafar, o'rtacha kontrakt 10 mln so'm, to'lov intizomi koefitsiyenti 0,95 qilib olindi.

### 2-jadval.

#### Nodavlat OTMda uch ssenariy bo'yicha prognoz tushum hisob-kitobi<sup>1</sup>

Ssenariy turi	Talabalar soni (N)	O'rt. kontrakt (K), mln so'm	To'lov intizomi ( $\alpha$ )	Prognoz tushum (PT), mln so'm	Bazaviydan farqi, mln so'm
Bazaviy	2 000	10	0,95	<b>19 000</b>	–
Optimistik	2 150	10	0,97	<b>20 855</b>	+ 1 855
Pessimistik	1 850	10	0,90	<b>16 650</b>	– 2 350
Ssenariyalar tafovuti	300	–	0,07	<b>4 205</b>	–

2-jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, uch ssenariy o'rtasidagi yillik tushum tafovuti 4 205 mln so'mni — pessimistik ssenariyda 16 650 mln so'mdan optimistik ssenariyda 20 855 mln so'mgacha — tashkil etadi. Bu esa

1 Muallif tomonidan tuzilgan.

prognozlash tizimisiz strategik rejalashtirishning juda noaniq bo'lib qolishini yaqqol ko'rsatadi: qaysi ssenariy realizatsiya bo'lishiga qarab, muassasa moliyaviy holati keskin farq qiladi.

Prognozlash tizimi faqat rejalashtirish uchun emas, balki faktik ko'rsatkichlarning rejalashtirilgan darajadan og'ishini muntazam aniqlash uchun ham xizmat qilishi zarur. Quyidagi og'ishlar alohida kuzatilishi kerak: tushumlar og'ishi, kontrakt to'lovlari yig'impliligi og'ishi, xarajatlar smetasidan og'ish, marjinal daromad og'ishi, pul oqimlari og'ishi va likvidlik koeffitsiyentlari og'ishi. Har bir og'ish bo'yicha sabab-tahlil, mas'ul markaz va tuzatish chorasi ko'rsatiladigan boshqaruv hisobotlari shakllantirilishi lozim.

Nodavlat OTMlarda tushumlar va xarajatlar qabul rejasi, kontrakt narxi, to'lov intizomi, stipendiya va chegirma siyosati, yangi dasturlar ochilishi, o'qituvchilar tarkibi, energiya va xizmat xarajatlari, raqamli platformalar xarajatlari kabi bir nechta tashqi va ichki drayverlarga bog'liq. Shu sababli prognozlash ushbu omillarning har birini hisobga olgan holda qurilishi, natijalar esa kamida uch ssenariy bo'yicha taqdim etilishi lozim.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari nodavlat oliy ta'lim muassasalarida moliyaviy barqarorlik va likvidlikni boshqaruv hisobi tizimiga integratsiyalash hamda prognozlash instrumentlarini joriy etishning zarurligini ilmiy jihatdan asoslab berdi. Asosiy xulosalar:

Birinchiidan, moliyaviy barqarorlikni nodavlat OTMlarda baholash faqat balans ko'rsatkichlari doirasida emas, balki joriy likvidlik, kritik baholash, kapitalizatsiya, moliyaviy barqarorlik, o'z mablag'lari ulushi va xarajat qaytimini birlashtiruvchi oltita ko'rsatkich tizimi asosida amalga oshirilishi lozim. "KIUT" OTM misolida joriy likvidlik (2,26) va kapitalizatsiya (0,31) ko'rsatkichlari qoniqarli bo'lsa-da, moliyaviy barqarorlik koeffitsiyenti (0,29–0,30) uni mustahkamlash zarurligini ko'rsatdi.

Ikkinchiidan, uch darajali ko'rsatkichlar piramidasini — operativ, taktik va strategik — boshqaruv hisobi tizimiga kiritish rahbariyatni har bir boshqaruv darajasiga mos axborot bilan ta'minlaydi.

Uchinchiidan, **rolling forecast** va ssenariyli prognozlash modelini joriy etish muhim amaliy natija berdi: uch ssenariy o'rtasidagi yillik tushum tafovuti 4 205 mln so'mni tashkil etib, prognozlash vositalarisiz strategik rejalashtirishning noaniqligini ko'rsatdi.

To'rtinchiidan, "yashil-sariq-qizil" zonalarga asoslangan erta ogohlantirish tizimi boshqaruv hisobini reaktiv nazoratdan proaktiv moliyaviy boshqaruvga aylantiradi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abdusalomova N.B. Boshqaruv hisobi tizimida ichki nazorat va budjetlashtirish uslubi-yatini takomillashtirish: iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent: Toshkent moliya instituti, 2019. – 76 b.
2. Mamatkulov M.Sh. Kommunal xizmat ko'rsatish tizimi korxonalarida boshqaruv hisobi metodologiyasini takomillashtirish: iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2021. – 66 b.
3. Maxsudov B.Y. Boshqaruv hisobida budjetlashtirish metodologiyasini takomillashtirish: iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent: Toshkent moliya instituti, 2018.
4. Kostayev U.U. Strategik boshqaruv hisobi metodologiyasini takomillashtirish: iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent: Toshkent moliya instituti, 2020. – 69 b.
5. G'iyosov I.K. Boshqaruv hisobini tashkil etish va samaradorligini oshirish yo'nalishlari: iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2020. – 58 b.
6. Kalonov M.B. Daromadlar va xarajatlar hisobi hamda tahlili uslubi-yoti. Monografiya. – Toshkent: Akademya, 2019. – 352 b.
7. Pardayeva Sh.A. Xo'jalik subyektlarida moliyaviy natijalarning strategik boshqaruv hisobini takomillashtirish // Xalqaro moliya va hisob. – 2021. – №3.
8. Pardayev A.X., Pardayev B.X. Boshqaruv hisobi. O'quv qo'llanma. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2008. – 252 b.
9. Ibragimov A.K., Xasanov B.A., Rizayev N.K. Amaliy boshqaruv hisobi. – Toshkent: Moliya, 2014. – 404 b.
10. Kaplan R.S., Atkinson A.A. Advanced Management Accounting. 3rd ed. – Upper Saddle River, NJ: Prentice Hall, 1998.
11. Drury C. Management and Cost Accounting. 10th ed. – Andover: Cengage Learning, 2018.



+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



[t.me/yait\\_2100](https://t.me/yait_2100)

